

**NAMANGAN DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/29.08.2023.K/T.66.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

NAMANGAN DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI

ALIYEVA GULNOZA SOBIRJON QIZI

**MUZLATILGAN NON MAHSULOTLARI TEXNOLOGIYASIDA
MAHALLIY O‘SIMLIK XOMASHYOLARIDAN FOYDALANISH**

**02.00.17 - Qishloq xo‘jalik va oziq-ovqat mahsulotlariga ishlov berish, saqlash
hamda qayta ishlash texnologiyalari va biotexnologiyalari**

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Namangan – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi
Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
Contents of dissertation abstract of Doctor of Philosophy (PhD)

Aliyeva Gulnoza Sobirjon qizi

Muzlatilgan non mahsulotlari texnologiyasida mahalliy
oʻsimlik xomashyolaridan foydalanish.....3

Алиева Гулноза Собиржон кизи

Применение местного растительного сырья в производстве
замороженных хлебобулочных изделий21

Aliyeva Gulnoza

Local in the technology of frozen bakery products
use of plant raw materials.....39

Эълон қилинган илмий ишлар рўйхати

Список опубликованных работ
List of published works.....43

**NAMANGAN DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/29.08.2023.K/T.66.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

NAMANGAN DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI

ALIYEVA GULNOZA SOBIRJON QIZI

**MUZLATILGAN NON MAHSULOTLARI TEXNOLOGIYASIDA
MAHALLIY O‘SIMLIK XOMASHYOLARIDAN FOYDALANISH**

**02.00.17 - Qishloq xo‘jalik va oziq-ovqat mahsulotlariga ishlov berish, saqlash
hamda qayta ishlash texnologiyalari va biotexnologiyalari**

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Namangan – 2025

Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.4.PhD/T5041 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Namangan davlat texnika universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus va ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.nammti.uz) va «ZiyoNet» axborot ta'lim tarmog'iga (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Djaxangirova Gulnoza Zinatullayevna
texnika fanlari falsafa doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Mamatov Sherzod Mashrabjonovich
texnika fanlari doktori, professor

Ravshanov Suvonqul Saparovich
texnika fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Farg'ona davlat texnika universiteti

Dissertatsiya himoyasi Namangan davlat texnika universiteti huzuridagi DSc.03/29.08.2023.K/T.66.02 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil «23» avgust soat 10⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 160115, Namangan shahri, Kosonsoy ko'chasi, 7-uy. Tel.: (69) 234-14-85, faks: (69) 234-14-85, e-mail: info@namdtu.uz, Namangan davlat texnika universiteti, 6-bino, 1-qavat, Ilmiy kengash xonasi).

Dissertatsiya bilan Namangan davlat texnika universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (50 - raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 160115, Namangan sh., Kosonsoy ko'chasi, 7-uy. Tel.: (99869) 234-14-85.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil «8» avgust kuni tarqatildi.
(2025 yil «8» avgustdagi 23-raqamli reestr bayonnomasi).

O.K. Ergashev

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy
kengash raisi, t.f.d., professor.

O.T. Mallabayev

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy
kengash kotibi, k.f.f.d., dotsent.

A.M. Xamdamov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy
kengash qoshidagi Ilmiy seminar
raisi, t.f.d., dotsent.

KIRISH

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati. Dunyoda so‘nggi o‘n yilliklarda global raqobat sharoitida non pishirish sanoatini innovatsion rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlaridan biri non mahsulotlari turlarini kengaytirish va yangi texnologiyalarini ishlab chiqishdan iborat bo‘ldi. Hayotning zamonaviy ritmi non pishirish sanoatida qo‘llaniladigan texnologiyalarga yangi talablarni qo‘yadi. Hozirgi vaqtda non texnologiyasida muzlatilgan yarim tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish keng tarqalmoqda. Biroq yangi ilg‘or texnologiyalarni sanoatga jadal joriy etishga to‘sqinlik qilayotgan bir qator sabablar mavjud. Xamir yarim tayyor mahsulotlarini muzlatish jarayonida oqsillarning denaturatsiyasi va agregatsiyasi sodir bo‘ladi, bu funksional xususiyatlarning yo‘qolishiga olib keladi, muz kristallari hosil bo‘lishi tufayli xamirturush hujayralari nobud bo‘ladi. Shuni ham ta‘kidlash kerakki, oparali xamir va xamir zuvalalarini muzlatishda namlik yo‘qolishi sodir bo‘ladi. Shuning uchun non texnologiyasida oparali xamir va xamir zuvalalarini muzlatishda turli xil krioprotektorlar qo‘shish muhim ahamiyatga ega.

Jahonda o‘z xomashyo resurslaridan foydalanish hisobiga muzlatilgan yarim tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish texnologiyasini takomillashtirish sohasida ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Bu borada muzlatilgan non sanoatida xamir yarim tayyor non mahsulotlari, shuningdek, sovutilgan yarim tayyor non mahsulotlari turlarini kengaytirish; xomashyo bazasini sezilarli darajada to‘ldirishni ta‘minlash; muzlatilgan non mahsulotlari texnologiyasini o‘simlik xomashyolaridan foydalanish orqali ularning ozuqaviy qiymatini oshirish; korxonalarining bozor ehtiyojlariga moslashuvchan tarzda javob berishi hamda qo‘shimcha ravishda asbob-uskunalar va mahsulotlarni tashish xarajatlarini kamaytirishga alohida e‘tibor berilmoqda.

Respublikada so‘nggi yillarda non yarim tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish bo‘yicha ilmiy-amaliy tadqiqotlar olib borilib, bu mahsulotlar turlarini sezilarli darajada kengaytirishda muayyan natijalarga erishilmoqda. Shu bilan birga, mamlakatda muzlatilgan yarim tayyor non mahsulotlarining keskin tanqisligi saqlanib qolmoqda. Yangi O‘zbekistonni rivojlantirish strategiyasida “...ozuq-ovqat sanoatini rivojlantirish dasturini amalga oshirish doirasida ozuq-ovqat xomashyosi bazasini kengaytirish va ishlab chiqarish hajmini bosqichma-bosqich oshirish maqsadida ilmiy tadqiqotlar olib borish va aniq takliflar ishlab chiqish¹” kabi vazifalar belgilab berilgan. Bu vazifalardan kelib chiqib, mahalliy o‘simlik xomashyosidan foydalangan holda muzlatilgan yarim tayyor non mahsulotlari ishlab chiqarish texnologiyasini ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-iyuldagi PQ-4406-son “Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini chuqur qayta ishlash va ozuq-ovqat sanoatini yanada rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi, 2020-yil 10-apreldagi PQ-4670-son “Yovvoyi dorivor o‘simliklarni muhofaza qilish, yetishtirish, qayta ishlash va mavjud resurslardan oqilona foydalanish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2021-yil 11-yanvardagi 4941-son “Namangan viloyatining Kosonsoy,

¹O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarda yangi O‘zbekistonni rivojlantirish strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son qarori

Chortoq va Yangiqo'rg'on tumanlarida meva-sabzavotchilik va uzumchilikni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga muvofiqligi. Mazkur tadqiqot Respublikada fan va texnologiyalar rivojlantirishning VII. "Kimyoviy texnologiyalar va nanotexnologiya" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoni o'rganilganlik darajasi. Dunyoda olib borilayotgan ilmiy tadqiqot ishlarida muzlatilgan yarim tayyor mahsulotlardan non ishlab chiqarish muammolari bo'yicha bir qator olimlar ilmiy-amaliy faoliyatlar olib borishgan, jumladan, L.Y. Auerman, I.B. Kim, L.Y. Tverdokhle, I.V. Matveeva, R.D. Polshava, R. Xosniyning, I.A. Mangala va boshqalar ishlarida bayon etilgan.

Biologik qimmatli tabiiy xomashyodan oqilona foydalanib, oziq-ovqat mahsulotlari, o'simlik kukunlarining ozuqaviy qiymati va xavfsizligini oshirishga qaratilgan tadqiqotlarda T.G. Gabibov, N.G. Zagirov, M.Sh. Abdullaev, B.M. Guisenova, G.S. Yusupova, R.M. Gadjimuratova, A.A. Magamedova G.Ya. Umarov, A.P. Baydyuk, M.M. Mirzayev, R. Rizaev, X.Ch. Bo'riev, Z.S. Iskandarov, B.P. Shaymardanov, X.B. Shaumarov, R.J. Jurayev, J.N. Fayziyev, X.F. Jurayev, A.M.Nazarovlar yetakchi hisoblanadi. Shuningdek, non va unli qandolat mahsulotlarining ozuqaviy qiymatini oshirish uchun ushbu turdagi qo'shimchalardan foydalanish bo'yicha V.I. Drobot, S.Ya. Koryachkina, T.V. Matveeva, O.V. Perfilova, A.B. Eingor, T.V. Renzyaeva, V.A. Vaskina, G.O. Magomedov, L.P. Pashchenko, E.G. Iorgacheva, S. Marcello, C Rodrigues, I.B. Isaboyev, G.Z.Djaxangirova va boshqalar salmoqli ulkan hissa qo'shganlar. Biroq bu muammo hamon dolzarbligicha qolmoqda.

Respublikamizda xurmo mevalari (*Diospyros kaki* L.) va Zubturus (*Plantago major*) qadim zamonlardan beri sharq tabobatida qo'llanilganiga qaramay, ularni non mahsulotlarida qo'shimcha sifatida foydalanish bo'yicha tadqiqotlar olib borilmagan. Mahalliy tadqiqotchilarning fikricha, ularni, ayniqsa, respublikaning qurg'oqchil hududlarida yetishtirish tavsiya etilgan.

Ushbu dissertatsiya xurmo mevalari po'stlog'idan va Zubturus (*Plantago major*) urug'idan olingan kukun – zubturusni muzlatilgan non mahsulotlari ishlab chiqarishda krioprotektor sifatida qo'llash imkoniyatlarini o'rganuvchi birinchi ilmiy-tadqiqotdir.

Oziq-ovqat tarkibiy qismlarining ichki bozori shakllanish bosqichida bo'lganligi sababli ushbu yo'nalishdagi tadqiqotlar, ayniqsa, potensial imkoniyatlari va funksional xususiyatlari hali yetarlicha o'rganilmagan mahalliy xomashyo asosida dolzarbdir. Un mahsulotlari ishlab chiqarishda ushbu xomashyodan foydalanish ularning ozuqaviy qiymatini oshiradi, asosiy xom ashyoni tejashni ta'minlaydi, shuningdek, eng qimmatli oziq-ovqat resurslaridan oqilona va tejamkor foydalanish imkonini beradi.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Namangan davlat texnika universitetining amaliy tadqiqot ishlari va Toshkent kimyo-texnologiya instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining AM-FZ-2019081448 «Mahalliy xomashyo asosida

glyutensiz non-bulka mahsulotlarini ishlab chiqarish texnologiyasini ishlab chiqish, oziq-ovqat ishlab chiqarishi chiqindilaridan ratsional foydalanish» (2020-2023 yy.) mavzusidagi davlat amaliy loyihasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi xurmo mevasi po'stlog'i va zubtutum (*Plantago major*) urug'i kukunlaridan muzlatilgan non mahsulotlari ishlab chiqarishda qo'shimcha sifatida foydalanish texnologiyasi ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

o'simlik xomashyosining texnologik samaradorligi va funksional yo'nalishi hamda undan non mahsulotlari ishlab chiqarishda foydalanish bo'yicha zamonaviy ma'lumotlarni tahlil qilish, umumlashtirish va tizimlashtirish;

o'simlik qo'shimchalarining (xurmo va zubtutum) ozuqaviy qiymati va funksional va texnologik xususiyatlarini o'rganish;

o'rganilayotgan xomashyodan kukunsimon yarim tayyor mahsulotlarni olishning texnologik parametrlarini aniqlash;

o'rganilayotgan xomashyoning kukunsimon yarim tayyor mahsulotining texnologik salohiyati va ozuqaviy qiymatini o'rganish;

muzlatilgan non mahsulotlarining sifati va ozuqaviy qiymatiga o'simlik qo'shimchalaridan foydalanish samaradorligini o'rganish;

tadqiqot natijalarini umumlashtirish va ular asosida sanoat ishlab chiqarishining texnologik ko'rsatmalarini ishlab chiqish, ishlanmalarning iqtisodiy samaradorligini aniqlash.

Tadqiqotning ob'yekti: sifatida xurmo va zubtutum (*Plantago major*), ulardan tayyorlangan kukun, qo'shimchalar bilan pishirilgan mahsulotlar, qo'shimchalar bilan muzlatilgan yarim tayyor mahsulotlar olingan.

Tadqiqotning predmeti o'rganilayotgan o'simlik xomashyosidan ozuqaviy qiymati oshgan, asosiy xomashyo sarfini kamaytiruvchi qo'shimchalar bilan boyitilgan muzlatilgan non mahsulotlari ishlab chiqarishda krioprotektor sifatida foydalanish texnologiyasini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada xomashyo, yarim tayyor mahsulotlar va tayyor mahsulotlarning xossalari o'rganish uchun umume'tirof etilgan standart va maxsus organoleptik, fizik-kimyoviy, mikrobiologik va reologik usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

mahalliy xurmo mevalari po'stlog'i va zubtutum urug'idan olingan kukunlar asosida yarim tayyor mahsulot olishning texnologik parametrlari aniqlanib, bunda kukunlarning namlikni ushlab turish qobiliyati xamirning namligini 1,0% -2,0 % gacha oshishi hisobiga tayyor mahsulotlarning chiqishi va ularning yangiligini uzaytirish aniqlangan;

mahalliy xomashyodan olingan kukunlarning asosiy kimyoviy va miqdoriy tarkibi o'rganish natijasida xurmo mevalari po'sti tarkibida aminokislotalarning yig'indisi 20,721 mg/g ni, zubtutum urug'idan olingan kukunda leysin aminokislotalari ustunlik qilib 7,95 mg/g ni tashkil etishi aniqlangan;

krioprotektor sifatida pektin tutuvchi o'simlik qo'shimchalari bilan muzlatilgan yarim tayyor mahsulotlarni ishlab chiqarish uchun mo'ljallangan xamirning reologik

xossalarini keng qamrovli o'rganilgan va mahalliy bug'doy unidan xamir pishirishda ularning o'rtacha me'yorlari aniqlangan;

mahalliy xurmo mevalari po'sti va zubtutum urug'i kukunlaridan 1,5% miqdorda krioprotektor sifatida foydalanib, muzlatilgan non tayyorlash retsepturasi va texnologiyasi takomillashtirishda bug'doy unining sarfi 1,0 % 1,5% ga va shakar sarfi 20% ga kamaytirilishi orqali tayyor mahsulotlar chiqishi 2,0% ga, yaroqlilik muddati 24 soatga oshganligi isbotlangan;

xamir bo'laklarini muzlatish va eritish paytida, qo'shimchalarsiz va uning harorat rejimiga qarab, xamirturush hujayralarining faolligidagi o'zgarishlarning tavsifi asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

o'simlik qo'shimchalari bilan muzlatilgan non mahsulotlari ishlab chiqarish retseptlari va texnologiyalari ishlab chiqilgan;

o'rganilayotgan xomashyodan foydalanish hisobiga shakar va birinchi navli bug'doy unining retsept miqdorini kamaytirish imkoniyati aniqlangan;

ishning nazariy jihatlarini oziq-ovqat texnologiyasi ta'lim yo'nalishida bakalavr va magistr larni tayyorlash bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Kimyoviy va fizik-kimyoviy laboratoriya tadqiqotlari tahlil natijalari hamda boshqa fizik-kimyoviy tahlilning zamonaviy usullarini qo'llagan holda, laboratoriya va tajribaviy-ishlab chiqarish sharoitlarida aprotatsiyasidan o'tkazish natijalariga ko'ra sanoat-tajriba sinovlari dalolatnomalar va yuqori tashkilotning ma'lumotnomasi bilan tasdiqlangan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati:

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati muzlatilgan non mahsulotlarini biologik faol xususiyat bilan boyitish uchun samarali resurs tejovchi qo'shimchalar sifatida mahalliy xurmo va zubtutum (*Plantago major*) yangi turdagi o'simlik qo'shimchalarini qo'llash imkoniyatlarini nazariy asoslanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati muzlatilgan non mahsulotlari ishlab chiqarish bo'yicha texnologik ko'rsatmalarni ishlab chiqishda boyitilgan non mahsulotlari turlarini ko'paytirish va mahalliy xomashyolardan krioprotektor sifatida samarali foydalanish imkoniyatlarini baholash hamda ta'lim muassasalarida oziq-ovqat texnologiyasi yo'nalishidagi bakalavr va magistr larni tayyorlash jarayoniga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. O'rganilayotgan o'simlik xomashyosi va ulardan qo'shimchalarning krioprotektorlik salohiyatini oshirish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

mahalliy xurmo mevalari po'stlog'i va zubtutum (*Plantago major*) urug'idan kukunlarini ishlab chiqish texnologiyasi "GREEN FRUIT WAREHOUSE" MCHJ korxonasi «2023-2026 – yillarda amaliyotga joriy etish bo'yicha istiqbolli ishlanmalar ro'yxati»ga kiritilgan ("Oziq-ovqat sanoati uyushmasi"ning 2024 yil 3 oktabrdagi 03-97/10-24-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, kukunlarning namlikni ushlab turish qobiliyatining oshishi xamirning namligini 1,0% dan 2,0% ga oshirish, bu esa tayyor mahsulotlarning chiqishini hamda ularni uzoq muddat saqlash imkonini beradi;

yangi turdagi muzlatilgan non mahsuloti ishlab chiqarishda qo'llaniladigan mahalliy xurmo mevalari po'stlog'i va zubturog urug'idan kukun ishlab chiqarish texnologiyasi "Namangandon" AJ korxonasi tomonidan «2023-2026 yillarda amaliyotga joriy etish bo'yicha istiqbolli ishlanmalar ro'yxati»ga kiritilgan ("Oziq-ovqat sanoati uyushmasi"ning 2024 yil 3 oktabrdagi 03-97/10-24-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, un xomashyosini olingan qo'shimcha bilan boyitish uning ozuqaviy va biologik qiymatini oshirishi hamda muzlatilgan yarim tayyor mahsulotlarda krioprotektor sifatida un massasiga nisbatan 1,5% miqdorda qo'llanilganda xamirning elastik xususiyatlariga, xamirturush faolligiga va nonning organoleptik sifat ko'rsatkichlarini yaxshilash imkonini bergan.

yangi turdagi muzlatilgan non mahsuloti ishlab chiqarish texnologiyasi "Nurobod lazizli nonlari" MChJda joriy etildi ("Oziq-ovqat sanoati uyushmasi"ning 2024- yil 3 oktabrdagi №03-97/10-24-sonli guvohnomasi). Natijada, xurmo po'stlog'i va psillium kukunlaridan foydalanilganda bug'doy unining sarfi 1,0% -1,5% ga, shakar sarfini 20% ga kamaytirish hisobiga tayyor mahsulotlar chiqishi 2,0% ga, yaroqlilik muddati 24 soat bo'lish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarini aprobatsiyasi. Tadqiqotning asosiy natijalari 4 ta xalqaro va 2 ta milliy ilmiy-texnikaviy konferensiyalarda ma'lum qilindi, muhokama qilindi va tasdiqlandi.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 17 ta ilmiy ishlar nashr etilgan, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi dissertatsiyalarning asosiy natijalarini nashr etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 4 ta ilmiy maqola, jumladan 2 tasi respublika va 2 tasi xalqaro jurnallarda nashr qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiyaning tuzilishi kirish, to'rt bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiya hajmi 120 betdan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida ilmiy tadqiqot ishining dolzarbligi va zarurati asoslangan, ilmiy tadqiqot ishining maqsadi va vazifalari, obykti, predmeti hamda tadqiqot usullari tavsifi keltirilgan, respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga muvofiqligi ko'rsatilgan hamda muammoning o'rganilganlik darajasi yoritilgan. Tadqiqot natijalarining ishonchiligi, ilmiy yangiligi va amaliy ahamiyati asoslangan. Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi, ishlab chiqarishga joriy etilishi, chop etilgan ilmiy ishlar va dissertatsiyaning tarkibiy tuzilishi haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiya ishining **"Muzlatilgan non mahsulotlari ishlab chiqarishda o'simlik asosli qo'shimchalarni qo'llashning muammolari va istiqbollari"** deb nomlangan birinchi bobida, non mahsulotlarining ozuqaviy qiymati va aholi ovqatlanishidagi ahamiyatini o'rganish natijalari yoritilgan. O'simlik xom ashyosining funksional tarkibiy qismlarining texnologik ta'siri va xamir, tayyor mahsulotning reologik xossalriga ta'siri tahlil natijalari keltirilgan. Oziq-ovqat sanoatining non pishirish tarmoqlarida meva, rezavor va sabzavot xomashyosidan oziq-ovqat qo'shimchalarini, dorivor o'simliklardan foydalanishning eng istiqbolli yo'nalishlari belgilanib, ulardan un mahsulotlari ishlab chiqarish usullari umumlashtirilgan va

tizimlashtirilgan hamda xomashyo mahsulotlarining ozuqaviy qiymatiga ta'siri bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan. Adabiyotlar tahlili dissertatsiya tadqiqotining maqsad va vazifalarini shakllantirishiga imkon yaratdi.

Dissertatsiyaning **“Tadqiqot uchun tanlangan xomashyolar tarkibi va xususiyatlari hamda tajriba o'tkazish usullari”** deb nomlangan ikkinchi bobida tadqiqot uchun tanlangan obyekt – xurmo mevasi po'stlog'i va zubtutum urug'i kukunlarining fizik-kimyoviy xususiyatlari, organoleptik ko'rsatkichlari keltirilgan bo'lib, uni tanlashda mintaqamizda keng ko'lamda yetishtiriladigan, quritish uchun yaroqli bo'lgan navlari tanlangan. Shu bilan birga tadqiqot obyektining umumiy tavsifi, fizik-kimyoviy ko'rsatkichlari, tajribalarni o'tkazish tartibi va usullari batafsil yoritilgan. Shuningdek, xomashyolarni tayyorlash jarayoni, ularning tarkibi, ozuqaviy qiymati va sifat ko'rsatkichlari aniqlangan.

Dissertatsiyaning **“O'simliklar qo'shimlarini texnologik potensial va oziqaviylik qiymati tadqiqoti”** deb nomlangan uchinchi bobida Xurmo mevalari po'stlog'i kukunidan (XMPK) va zubtutum kukuni (ZK) - zubtutum urug'ining qobig'idan olingan eruvchan tolalar, mahsulotlarni biologik faol moddalar bilan boyitish uchun, krioprotektorlar sifatida; kukunlarni ishlab chiqarish texnologiyasi tasvirlangan; tadqiqot obyektlarining kimyoviy tarkibi, funksional va texnologik xususiyatlari va oziq-ovqat xavfsizligini o'rganish natijalari keltirilgan.

Sharqiy xurmo (Diospyros Kaki) O'zbekistonda keng tarqalgan subtropik mevali ekinlardan biridir. Respublikada xurmoning eng mashhur navi “Hiakume” hisoblanadi. U xalq orasida "Korolek" deb ataladi. Ikkinchi eng mashhur nav - bu "Zenji Maru" yoki "shokoladli" xurmo, qizil-jigarrang. "Buqa yuragi" navi ham katta talabga ega - yirik meva urug'siz, to'q sariq rangga ega va hech qachon qoraymaydi. Katta va yassilangan mevalar bilan ajralib turadigan "Tamopan" navi ham bor, lekin u kamroq sovuqqa chidamli va yuqori hosilga ega emas. Xurmo mevalari cho'zinchoq-konussimon (Hachia), yumaloq olma shaklida (Hiakume), tekis dumaloq (N/D nisbati <0,75) va dumaloq (shakl indeksi 0,98-1,05) bo'ladi. Xurmo mevalarining ozuqaviy qiymati va dorivor xususiyatlari biologik faol moddalar - shakar, kislotalar, vitaminlar mavjudligi bilan belgilanadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, xurmo tarkibida 14,0% dan 20,0% gacha eriydigan qattiq moddalar mavjud. Hiakume va Zenji -Maru navlarining mevalari o'zining eng yuqori miqdori bilan ajralib turadi (1-jadval).

1-jadval.

Xurmo po'stlog'ini uglevod tarkibi

№	Tarkibi	Navlari		
		Zenji - Maru (shokolad)	Hiakume (korolek)	Tamopan katta
1	Quruq moddalar, %	18.6	20.0	14.0
2	Jami qandlar, %	14.9	16.0	11.2
3	Glyukoza, %	7.2	8.5	5.8
4	Fruktoza, %	7.3	7.0	4.6
5	Saxaroza, %	0.4	0,5	0,8

Subtropik ekinlarning mevalari orasida xurmo ko'p miqdorda glyukoza va fruktoza to'plash qobiliyati bilan ajralib turadi. Turiga qarab, monosaxaridlar miqdori

Tamopan katta navida 4,6% (fruktoza) va 5,8% (glyukoza) Zenji - Maru navidan Hiakume navida mos ravishda 7,0% dan 8,5% gacha bo'radi.

Organik kislotalar xurmo mevalariga xos bo'lgan o'ziga xos ta'mni aniqlaydi. O'rganilgan xurmo mevalarining kislotaliligi 0,15% (Hiakume va Tamopan katta) dan 0,34% (Zenji -Maru) gacha o'zgarib turadi va asosan olma kislotasi va oz miqdorda limon kislotasi aniqlandi, ular energiya manbai bo'lib, qondagi xolesterinni kamaytirishga yordam beradi. Xurmo mevalarida qo'shimcha ravishda yantar va sut kislotalari aniqlangan, ularning tarkibi izlar shaklida bo'lib, deyarli aniq ko'rsatilmagan. (2-jadval). Asosiy navlar guruhida 0,15%-0,34% umumiy kislotalar mavjud.

2-jadval.

Xurmo mevalaridagi organik kislotalar

№	Navlari	Kislota tarkibi, %				
		umumiy	olmali	limonli	sutli	amber
1	Zenji - Maru (shokolad)	0,34	0,160	0,12	-	-
2	Hiakume (wren)	0,15	-	-	-	-
3	Tamopan katta	0,15	0,10	0,05	yangilanmagan	izlar

Polisaxaridlar orasida pektin moddalarini bo'lib, xurmo mevalarining tarkibida, naviga, xususiyatiga qarab, pektin umumiy miqdori 0,47% Zenji -Maru (shokolad), 0,92% Hiakume (korolek), 0,59% Tamopan (katta), uning fraksiyasi tarkibi esa suvda eriydigan va erimaydigan pektin turlaridan iborat (3-jadval).

3-jadval.

Xurmo mevalaridagi pektin moddalarining tarkibi

№	Tarkibi	Navlari		
		Zenji - Maru (shokolad)	Hiakume (korolek)	Tamopan katta
1	Pektin miqdori, %	0,47	0,92	0,59
2	Eriydigan pektin, %	0,29	0,40	0,21
3	Protopektin, %	0,18	0,52	0,38

Xurmo mevalarida ko'p miqdorda vitaminlar, polifenollar va karotenoid pigmentlari mavjud. 100 g xurmo mevalari o'rtacha 14,2% mg askorbin kislotani o'z ichiga oladi, 14,5 mg Zenji-Maru (shokolad) 12,3 mg Hiakume (korolek) 15,8mg (Tamopan katta) C vitaminining yuqori miqdori (mg/100 g) Tamopan katta navli mevalarida aniqlangan (4-jadval).

4-jadval.

Xurmo mevalaridagi vitaminlar, polifenollar va β-karotin miqdori, mg/100 g

№	Navlari	Askorbin kislotasi	Polifenollar, mg/100 g			β - karotin
			katexolaminlar	leykoantho zangori	flavonoidlar	
1	Zenji - Maru (shokolad)	14.5	174,8	180.2	10.0	1.84
2	Hiakume (korolek)	12.3	234,0	58.6	20.0	1.46
3	Tamopan katta	15.8	246,0	212.6	21.0	-

Mevalarda katexolaminlar miqdori: 174,8 mg/100g (Zenji-Mar), 234,0mg/100g Hiakume (korolek), dan 246,0 mg/100 g gacha (Tamopan major). leykoantho zangorining o'zgarishi 58,6 mg/100 g (Hiakume) dan 212,6 mg/100 g (Tamopan major) gacha bo'lib ularning yuqori miqdori 180.2mg/100 g Zenji -Maru navida aniqlandi.


Xurmodagi flavonoidlar miqdori 10,0 mg/100 g (Zenji -Maru), 20.0 mg/100 g Hiakume (korolek) 21,0 mg/100 g Tamopan (katta) gacha aniqlandi. β -karotin yuqori antioksidant xususiyatlarga ega, uning miqdori (mg/100 g) 1,46 (Hiakume navi) dan 1,84 gacha (Zenji -Maru navi), o'rtacha miqdori 1,65 ni tashkil qiladi. Xurmo mevalarida boshqa turdagi birikmalar ham topilgan bo'lib shulardan xlorogen, nikotin, gallik, kofein, prototista kislotalar aniqlangan. Xurmo mevasining antioksidant faolligini oshiradigan resveratrol hisoblanadi. Eng katta miqdori gallik (41,6 mg/100 g gacha) va xlorogen (15,8 mg/100 g gacha) kislotalarga to'g'ri keladi.

Vitamin PP antioksidant faollikni shakllantirishda katta rol o'ynaydi. Uni iste'mol qilishning kunlik o'rtacha miqdori 15% dan 25% gacha tashkil qiladi Xurmo mevalarida 0,9 mg gacha vitamin PP bo'lib, bu olma (0,3 mg/100 g gacha) vitamin PP, o'rik (0,7 mg/100 g) yoki mandarin (0,20 mg/100 g)ga qaraganda ancha yuqori bo'ladi. Oziq-ovqat tarkibiy qismlariga aminokislotalar ham kiradi, oqsillarning bir qismi bo'lgan past molekulyar birikmalar hisoblanadi. Xurmo mevalarida 16 ta aminokislota topilgan va ularning miqdori nav xususiyatlari bilan belgilanadi. Zenji-Mar navining mevalarida aminokislotalar miqdori 141,7 mg/100 g, Hiakume navida deyarli 26% ko'p. Treonin va lizin Zenji -Maru navining mevalarida maksimal miqdorda topilgan.

Xurmo mevalarining sifat ko'rsatkichlarini o'rganish natijalari asosida turli navli mevalar tarkibidagi biologik faol moddalarning ma'lumotlar bazasi shakllantirildi, undan funksional non mahsulotlarini modellashtirishda foydalanildi. Mevalarni yetishtirishda sifat ko'rsatkichlarini shakllantirish bo'yicha olingan ma'lumotlar mikroelementlarni boyitish uchun xom ashyo tanlashda asos bo'ldi.

Dissertatsiyaning ishining «**Non mahsulotlarini ishlab chiqarishda o'simlik kukunlaridan foydalanish va uning iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlari**» deb nomlangan to'rtinchi bobida muzlatilgan yarim tayyor mahsulotlarni saqlash muddatini oshirish uchun texnologik yechimlarni topishga qaratilgan. Hozirda biologik faol moddalarning saqlanib qolishini oshirish, xom ashyoning maksimal darajada kamayishini ta'minlash uchun mo'ljallangan juda ko'p turli xil quritish sxemalari (usullari) mavjud. O'simlik xom ashyosidan kukun olish uchun (*xurmo* mevalari va *zubturum (Plantago ovata)*) konvektiv quritish usuli, ya'ni takomillashtirilgan uzluksiz quritish texnologiyasi qo'llanildi.


O'simlik xomashyolarini konvektiv quritish moslamasining samaradorligini oshirish uchun o'z-o'zidan tebranadigan tagdonli takomillashtirilgan quritish moslamasi qo'llanildi. Tadqiqot obyektlaridan kukun olishning texnologik sxemalari 1- va 2-rasmlarda tasvirlangan. Quritish uchun takomillashtirilgan konvektiv quritish moslamasidan foydalanilgan va keyin u LZM mikrotegirmonida maydalangan. Bunda kukun 65,0-68,0 % raqamli elakdan so'ngra 0.38-raqamli elakdan o'tkazildi, elakdagi qoldiq 2,0-3,0% ni tashkil qildi.



1-rasm. Xurmo mevalari qobig'idan kukun olishning texnologik liniyasi.

1 - nazorat transportyori; 2 - yuvish mashinasi; 3 - elevator; 4 - stellaj; 5 - quritish shkafi; 6-mikrotegirmonlar; 7 – elash mashinasi; 8 - qadoqlash mashinasi, 9 – tayyor mahsulot

Xurmo mevalari qobig'idan olingan kukun keyinchalik non va unli qandolat mahsulotlarini kletchatka, pektin moddalari va β -karotin bilan boyitish uchun, shu jumladan, muzlatilgan unli mahsulotlar ishlab chiqarishda krioprotektor oziq-ovqat qo'shimchasi sifatida ishlatiladi.



2-rasm. Zubtulum urug'idan kukun olishning texnologik liniyasi.

1-xomashyo uchun bunker, 2-quritish uskunasi, 3- tozalash separatori, 4-destoner, 5-aspirator, 6-tozalangan urug'lar uchun bunker, 7-mikrotegirmon, 8- havo bilan ishlov berish, 9-zubtulum uchun bunker, 10-kukuni qadoqlash, 11-saqlash uchun tayyor mahsulot.

Zubtulum o'simligining urug'i qobig'i bo'lib, u juda ko'p suvni bog'laydi va quyuk gelga o'xshash tuzilishga ega massa hosil qiladi.

Namlikni ushlab turish qobiliyatining oshishi xamirning namligini 1,0% dan 2,0%ga oshirish imkonini berdi, bu esa o'z navbatida tayyor mahsulotlarning chiqishini oshirishga va ularning yangiligini uzaytirishga yordam beradi.

Hozirgi kunda muzlatilgan non mahsulotlari ishlab chiqarish korxonalarida foydalanilayotgan valyutaga xarid qilinayotgan xorijiy krioprotektorlar o'rnini mahalliy xurmo va zubtulumdan kukun holdagi ozuqaviy qo'shimcha qo'llash texnologiyalari samarali hisoblanadi. Muzlatilgan non mahsulotlari ishlab chiqarishda yarim tayyor mahsulotlarni tez muzlash (shok) usulda muzlatish va past haroratlarda

uzoq muddatli saqlash paytida past harorat xamirturush hujayralarining faolligiga ta'sir qiladi. Buning natijasida quruq moddalar yo'qolishi tejalishi, tayyor mahsulot chiqishi oshishiga va sifatli muzlatilgan mahsulot olishga erishildi.

Non-bulka mahsulotlarini essensial va ozuqa moddalari bilan boyitish, shuningdek asosiy retsept tarkibiy qismlarining xususiyatlarini to'g'rilash uchun,

birinchi navli bug'doy uni hisoblanadi An'anaviy bo'lmagan o'simlik xom ashyosidan kukun holdagi yarim tayyor mahsulotlar (bundan buyon matnda kukun deb yuritiladi) ko'rinishida foydalanish eng maqbuldir. Qo'shimchalarning ushbu o'ziga xos shaklini tanlash transport, saqlash va dozalash qulayligi bilan bog'liq. Bunday holda, tabiiy xom ashyolardan (ya'ni, oldindan ishlov berilmagan) va ikkilamchi (yangi ekstraksiya yo'li bilan sharbat yoki moy olingandan keyin) kukunlari keng qo'llaniladi. Meva va dorivor o'simliklarning kukunlari, ayniqsa, pishirish ishlab chiqarish uchun juda istiqbollidir. Ushbu kukunlar fermentatsiya mikroflorasi uchun eng qulay bo'lgan suvda eruvchan moddalarni o'z ichiga oladi, bu esa yarim tayyor un mahsulotlarining pishirish jarayonini kuchaytirish va texnologik jarayonning davomiyligini qisqartirish imkonini berdi. XMQK va ZK kukunlari kuchsiz ifodalangan tavsifli hid va ta'mga ega bo'lgan bir xil o'lchamdagi sochiluvchan massadir (5-jadval).

O'rganilayotgan xom ashyolardan kukunlarning organoleptik va texnologik massaviy zichligi (OFS 42-0137-09) (6,6 g/s dan 8,5 g/s gacha) oquvchanligi bo'yicha "yaxshi" deb tavsiflanadi. O'rganilayotgan qo'shimchalarning ozuqaviy qiymati ularning tarkibidagi oqsillar, uglevodlar, ozuqaviy (xun) tolalari, mineral tuzlar va texnologik jarayonning borishiga, tayyor mahsulotlarning sifati va ozuqaviy qiymatiga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan boshqa biologik faol moddalar bilan belgilanadi.

5-jadval.

Kukunlarning organoleptik va texnologik xususiyatlari

№	Ko'rsatkich nomi	Ko'rsatkich qiymati	
		XMQK	ZK
1	Rang	Och jigarrang	Qaymoqrang
2	Hid	Kuchsiz ifodalangan, begona hidlarsiz	
3	Ta'mi	Shirinroq, mahsulotga xos, begona ta'mga ega emas	
4	Tashqi ko'rinish	Mayda kristall kukun	
5	Namlik, %	4,85±0,05	4,90±0,05
6	Zichlik, g/sm ³	32,76±0,04	31,65±0,05
7	Sochiluvchanlik, g/c	6,80±0,10	7,25±0,05
8	Tabiiy qiyalik burchagi, grad	44,3±0,2	46,5±0,5

XMQK va ZK kukunlarining ozuqaviy qiymati va xavfsizligi o'rganildi (6-jadval).

6-jadvaldagi ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, kutilganidek, kukunlar tarkibida shakar miqdori ustunlik qiladi, fruktoza massa ulushi shakarlarning umumiy miqdoridan o'rtacha 56,30-57,06% ni tashkil qiladi. Termogidrolitik parchalanishi natijasida uning tarkibi kamayadi, monosaxaridlar ulushi ortadi va saxaroza kamayadi. Kukunlardagi boshqa moddalarning ko'payishi, unda asosan pektin moddalari va gemitsellyulozalar mavjudligi bilan bog'liq. Xurmo mevasi po'stlog'i kukunlari va

zubturm kukunidan tayyorlangan qo'shimchalarning sifatini baholash bo'yicha o'tkazilgan tajriba ma'lumotlariga ko'ra un xomashyosini olingan qo'shimcha bilan boyitish uning ozuqaviy va biologik qiymatining oshirishi asoslandi.

6-jadval.

Tadqiqot obyektlarining ozuqaviy qiymati

№	Oziq moddalar	100 g mahsulot uchun nutrientlarning massa ulushi, %	
		XMQK	ZK
1	Quruq moddalar	95.15	95.12
2	Oqsillar	6.21	5.31
3	Mono va disaxaridlar		
	Jumladan:	77.26	65.46
4	glyukoza	32.30	26.18
5	fruktoza	43.50	37.35
6	saxaroza	1.46	1.93
7	Ozuqaviy tolalar (eriydigan)	3.44	2.65
8	Organik kislotalar (olma kislota asosida)	2.41	2.04
9	Kul	3.67	6.07
10	Flavonoidlar (rutinga nisbatan)	0,34	0,15
	Boshqa moddalar	1.84	13.47
11	Energiya qiymati, kkal	314.5	266.7

Muzlatilgan non mahsulotlarini ishlab chiqarishda oziq-ovqat qo'shimchalarini, xususan, xurmo va zubturm urug'i kukunlarini qo'llash maqsadga muvofiqligini ilmiy va amaliy asoslab berilgan hamda qo'llanilayotgan xom ashyoni hisobga olgan holda non mahsulotlari ishlab chiqarishda o'simlik kukunlaridan foydalanishning iqtisodiy samaradorligi hisobi keltirilgan.

Qo'shimchalarning bug'doy unining asosiy biopolimerlari xususiyatlariga, xamir va tayyor mahsulotlar sifatiga va tadqiqot obyektlarining oziq-ovqat xavfsizligiga ta'sirini o'rganish natijalari keltirilgan. Qo'shilgan qo'shimchalarning kimyoviy tarkibi va ularning dozalari yarim tayyor un mahsulotlarining xususiyatlariga va tayyor mahsulot sifatiga ma'lum ta'sir ko'rsatadi. Oziq-ovqat qo'shimchalarini, xususan, xurmo mevasi po'stlog'i kukunlari va zubturm kukuni non mahsulotlarini ishlab chiqarishda qo'llashning maqsadga muvofiqligini asoslash uchun bug'doy unining asosiy biopolimerlar xususiyatlariga qo'shimchalarning ta'siri, xamir sifati, va tayyor mahsulotlar o'rganildi. Kukun qo'shib tayyorlangan xamirning operasiz usulda GOST 27844-88 da tavsiflangan usul bo'yicha tayyorlandi va so'ngra uni qo'shimchalarsiz namuna sifatida olingan non retseptiga mos ravishda taqqoslandi.

Unning retsept bo'yicha miqdoridan 0,5%, 1,0%, 1,5% va 2,0% o'rniga qo'shimchalar qo'shildi. Qo'shimchalarsiz tayyorlangan namunalar nazorat sifatida xizmat qildi. Gaz hosil qilish qobiliyati normal ($1346-1352 \text{ sm}^3 \text{ CO}_2$) ko'rsatkichga ega "Unni kuchi" ($H_{def}^{IDK}=68...70$ birlik) bo'yicha o'rta sifatida tavsiflangan. Tezda pishib

yetilish jarayonida umumiy qabul qilingan va maxsus tadqiqot usullaridan foydalangan holda uning asosiy ko'rsatkichlari aniqlandi. O'rganilayotgan qo'shimchalar uning asosiy biopolimerlari holatiga va xamirdagi fermentatsiya mikroflorasining faolligiga ma'lum ta'sir ko'rsatishi aniqlandi.

O'rganilayotgan qo'shimchalarning dozirovkasi xamirdan yuvilgan kleykovina miqdori va uning sifat ko'rsatkichlariga o'rganildi (7-jadval).

7-jadval.

Oziq-ovqat qo'shimchalarining xamirdan yuvilgan kleykovina miqdoriga ta'siri va uning strukturaviy va mexanik xususiyatlari

Ko'rsatkichlar	Un qo'shilishi bilan tayyorlangan xamirdan yuvilgan kleykovina uchun xamir sifat ko'rsatkichlarining qiymati, og'irlik bo'yicha%								
	nazorat uchun	XMPK				ZK			
		0,5	1,0	1,5	2,0	0,5	1,0	1,5	2,0
Kleykovina miqdori, %:									
xom	30,7	29,8	29,3	28,9	28,0	30,0	29,0	29,2	28,2
quruq	12,3	12,0	12,4	11,8	11,5	12,1	11,9	11,8	11,6
Gidratatsiya qobiliyati, %	150	148	146	145	143	148	147	146	143
Deformatsiyalanuvchi yukga chidamlilik, H_{def}^{DK} , uskuna birligi	78	73	70	62	60	71	69	67	64
Cho'zilish qobiliyati, sm	14,0	13,0	12,3	11,5	10,6	11,8	12,5	13,5	13,0

7-jadvalda keltirilgan ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, o'rganilayotgan qo'shimchalarning dozasini oshirish xamirdagi kleykovina massa ulushining tabiiy pasayishiga olib keldi. Sinov namunalari xom kleykovina unumi qo'shimchalarsiz namunalarga nisbatan o'rtacha 2,3% dan 1,8% gacha kamaydi, bu esa kleykovina oqsillarining shishishi uchun zarur bo'lgan erkin namlik miqdorining kamayishi va tarkibida oqsillarning yo'qligi bilan bog'liq bo'lib ular kleykovina hosil qiladi. Qo'shimchalarning qo'shilishi kleykovinaning strukturaviy va mexanik xususiyatlariga ham ta'sir ko'rsatdi. Aniqlanishicha, qo'shimchalarning dozasi oshishi bilan kleykovinaning gidratsiya qobiliyati va uning cho'zilishi pasaygan va elastikligi oshgan (8-jadval).

8-jadval.

O'rganilayotgan qo'shimchalarning birinchi nav bug'doy unidan tayyorlangan xamirning xususiyatlariga ta'siri

Ko'rsatkichlar	Un qo'shilishi bilan tayyorlangan xamirning xususiyatlarining qiymati, og'irlik bo'yicha %								
	nazorat qilish	XMPK				ZK			
		0,5	1,0	1,5	2,0	0,5	1,0	1,5	2,0
